

MUXIDDINOVA Dilafruz Zoxriddinovna,

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
Sharq mamlakatlari adabiyoti va qiyosiy
adabiyotshunoslik kafedrası mudiri,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
E-Mail: d.muhammadinova@inbox.ru*

ZAMONAVIY ARAB VA O‘ZBEK HIKOYALARIDA “YUSUFNOMA” MAVZUSI

ТЕМА «ЮСУФНАМА» В СОВРЕМЕННЫХ АРАБСКИХ И УЗБЕКСКИХ РАССКАЗАХ

THE THEME OF “USUFNAME” IN MODERN ARABIC AND UZBEK SHORT STORIES

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy arab va o‘zbek adabiyotida, xususan, hikoyanavisligida “Yusufnoma” mavzusi, obrazlar talqini, ma’rifiy g‘oya va mazmun, badiiy-irfoniy talqin va ramziy-majoziy ifoda, adabiy-estetik fikr, epik tavsiflar olami tahlil qilingan. Yozuvchilar payg‘ambarlar hayotiga oid qissalarga murojaatni “talmeh” san’atlari orqali ifodaladilar. Bu turdagi asarlarda ijodkorlarning ikki xil usulda yondashuvlarini ko‘rish mumkin: biri Payg‘ambarlar hayotidagi biron bir voqeani asar mazmuniga singdirib yuborish, ikkinchisi, asarda arxetip obrazlarni aks ettirish, ya’ni asar qahramonini o‘sha payg‘ambar ismi bilan atalishi va payg‘ambar hayotidagi voqealarni asar qahramonining hayotiga singdirib yuborish kabi usullar kuzatiladi.

Tayanch so‘z va iboralar: zamonaviy hikoya, “Yusufnoma” mavzusi, diniy obraz, “talmeh” san’ati, ramziy-majoziy ifoda, adabiy-estetik fikr, badiiy irfoniy talqin.

Аннотация. В данной статье анализируется тема «Юсуфнама», интерпретация образов, просветительские идеи и содержание, художественно-ирфаническая интерпретация и символически образное выражение, литературно-эстетическая мысль, мирэпических характеристик в современной арабской и узбекской литературе,

в частности, в новеллистике. Писатели выражали свое отношение к рассказам о жизни пророков через искусство «талмех». Данный вид произведений предполагает два разных подхода с точки зрения писателей: один связывает какое-либо событие из жизни пророков с содержанием произведения, другой же создает архетипические образы в произведении, то есть называет героя произведения именем того же пророка, а события из жизни этого пророка переплетаются с настоящей жизнью героя произведения.

Ключевые слова: современный рассказ, тема «Юсуфнома», религиозный образ, искусство «талмех», символически образное выражение, литературно-эстетическая мысль, художественно-ирфаническая интерпретация.

Abstract. This article analyzes the theme of “Yusufname”, interpretation of images, educational ideas and content, artistic and irfanical interpretation and symbolically figurative expression, literary and aesthetic thought, the world of epic characteristics in modern Arabic and Uzbek literature, in particular, in the short stories. Writers expressed their attitude to the life stories of prophets through the art of “talmeh”. This kind of works involves two different approaches from the point of the writer’s view: one binds an event from the life of prophets with the content of the work; the other creates archetypal characters in the work, then call the character of the work after the name of the same prophet, and the events in the life of this prophet is intertwined with the real life of the character of the work.

Keywords: modern short story, the theme of “Yusufname”, religious image art “talmeh”, symbolically figurative expression, literary and aesthetic thought, artistic and irphanic interpretation.

KIRISH

Jahon adabiyotida payg‘ambarlar hayotiga oid motivlarning rang-barang janrlar bilan ifoda etilgan mavzusi “Yusufnoma” hisoblanadi. Bashariyat tarixida Sharqda arab, turk, fors, o‘zbek, tojik, urdu, uyg‘ur va boshqa tillarda, G‘arbda nemis, ingliz, fransuz, latish va boshqa tillarda Yusuf, uning og‘alari va Zulayho haqida 150 dan ortiq asar yaratilgan. Turkiy tillarning o‘zida Yusuf va Zulayho voqeasi 70 dan ortiq

asar yaratilishiga sabab bo'lgan. Shu bois, Yusuf payg'ambarning hayoti va u bilan bog'liq voqeahodisalarning badiiy adabiyotda talqin qilinishi nuqtai nazaridan "Yusufnoma" deb nomlanishi alohida hususiyatga ega. Mazkur atamaga olim U.U.Qobilov: "Yusufnoma" shu mavzu va fabula atrofida yaratilgan xilma-xil janrlardagi asarlar turkumi uchun umumiy tarzda nomlandi" [4, 20], deya ta'rif beradi. Biz ham mazkur atamani ilmiy istifoda etishni joiz deb topdik. Jahon adabiyotida "Yusufnoma" mavzusida turli tuman asarlarni ko'rish mumkin. Shu jumladan, "Yusufnoma" mavzusi borasida turkiy xalqlar ichida "eng birinchi asar Xorazm saltanatiga qarashli olis shimoliy hududda yashovchi shoir Qul Alining dostoni bo'lib, u 1233-yilda yozilgan. 1409 yilda shoir Durbek ham bu mavzuni katta mahorat bilan qalamga olgan. Nozim Hikmatning dramasi ham o'z vaqtida katta shuhrat qozongandi. Fors adabiyotida Firdavsiy, Dehlaviy, Jomiy va boshqalarning namunalari, G'arb adabiyotidan esa katta va eng muhim asarlar sifatida nemis yozuvchisi Tomas Manning "Yusuf va uning og'alari" nomli tetralogiyasini, Yan Raynising shu nomli dramatik asarlarini ko'rsatish mumkin" [2,11].

ASOSIY QISM

"Yusufnoma" mavzusi zamonaviy adabiyotda ham, zamonaviy yozuvchilar tomonidan qayta-qayta murojaat qilinishini kuzatish mumkin. Endilikda, ijodkorlar hayotning mazmun-mohiyati, insonning bu dunyoga kelishi, taqdir, o'lim, Yaratgan Zot, iymon, e'tiqod, adolat, to'g'rilik va egrilik, yovuzlik va ezgulik, nur va zulmat kabi azaliy ma'naviy-axloqiy, diniy-falsafiy masalalarni yoritishda diniy kitoblarda keltirilgan payg'ambarlar hayoti, Qur'oni karimdagi oyatlarga, turli diniy rivoyatlar, qissalarga murojaat qiladilar.

"Yusufnoma" mavzusi har bir zamonaviy yozuvchi ijodida turli-tuman badiiy ko'rinishda namoyon bo'ldi. Zamonaviy arab va o'zbek yozuvchilarning ijodini kuzatar

ekanmiz, "Yusufnoma" mavzusining badiiy talqinida o'xshashlik va farqli xususiyatlar mavjud. Zamonaviy arab yozuvchilarining hikoyalarida Yusuf (a.s.) payg'ambarining o'z akalari tomonidan xasad sabab xiyonatga, uchrab quduqqa tashlanish motivi ustunlik qilsa, hozirgi zamon o'zbek yozuvchilari ijodida "Yusuf va Zulayho" o'rtasidagi ishq motivi ustunlik qiladi.

Shu jumladan, arab yozuvchisi Zakariya Tamerning "Yusuf.. Kichik, go'zal, halok bo'lgan Yusuf" [2, 20-28] hikoyasida Yusuf payg'ambarining akalari bilan bo'lgan munosabatini jamiyatning kambag'al qatlamdagi bolalarning boy xonadondan chiqqan o'rtoqlarini birga o'ynashga chaqirib olib ketib, hasaddan suvda cho'ktirib yuborishlariga ko'chirgan. Z.Tamer mazkur hikoyada "talmeh" san'atini qo'llagan holda sayyor syujet orqali jamiyatdagi insonlar o'rtasidagi salbiy munosabatlarni aks ettirgan. Hikoyaning diqqatga sazovorligi sarlavhaning "Yusuf.. Kichik, go'zal, halok bo'lgan Yusuf" deb berilishida, sababi hikoya qahramonlarining birortasini ismi Yusuf deb berilmagan, aksincha hikoya bosh qahramoni suvda cho'ktirilgan bolaning ismi Mahmud bo'ladi. Yozuvchining mahorati shundaki, hikoyada Yusuf payg'ambari haqidagi Qur'oni karim oyati yoki payg'ambarlar qissasidan parcha keltirilmagan holda syujetga sayyor syujet motivini singdirib yuborgan, faqatgina sarlavhasi orqali ishora qiladi. Hikoyada insonlar o'rtasidagi hasad, baxillik illatlari ochib berilgan.

Misrlik yozuvchi Ibrohim Aslon ijodida ham "Yusufnoma"ga murojaat o'zgacha usulda talqin qilingan. Ibrohim Aslon hikoyaning sarlavhasini "Yusuf va rido" deb nomlagan holda Hazrati Yusuf qissasiga ishora qiladi. Mazkur hikoyaning kompozitsion qurilishi ham o'ziga xos bo'lib, alohida qismlardan iborat. Mazkur hikoyada nohaq, tuhmat bilan ayblangan insonning taqdiri hasaddan, dushmanlikdan o'z akalari tomonidan quduqqa tashlab yuborilgan Yusuf payg'ambarning holatiga qiyoslanadi. Mazkur hikoya o'ziga xos kompozitsion hususiyatga

ega bo'lib, hikoya alohida qismlardan iborat va har bir qism esa son bilan ajratilgan. Lekin, hikoya qismlarida alohida voqealar bayon etilgan, go'yo bir-biriga bog'liq emasdek. Hikoya qahramonining ismi ham "Yusuf" deb atalib, u nohaq qamoqqa tushadi va hikoya davomida bu qamalishning sababi aks ettirilmaydi. Ammo, hikoya qahramoni boshiga tushgan holatini Yusuf (a.s.) bilan bog'liq voqealarni eslash bilan payg'ambar qissasiga ishora qilinadi:

"Menga urilayotgan zah havoni his qildim. Osmon esa go'yo shu aylana darcha ustida tepamda osilib turgandek tuyulardi. Bu bo'shliqda bir-biriga uzoq bo'lgan qisqa tirgaklari bilan mukammal qora temirdan bahaybat temir panjara bor edi.

Hayqirib chaqirdim

Menga javob qaytarmadi.

Men uchun eshikni ochmadi.

Yusuf!

Qo'limni ehtiyotkorona cho'zdim va ikkita kalta quloqlarni ko'rdim. Men joyimdan qo'zg'alganimda u men tomonga yaqin kelganini ko'rdim va shunda menda nima bo'lganini tushundim "men hiylaga uchragandim!" Shu tobda orqam bilan qorong'u zulmatda chulg'angan chuqurlik qariga qulay boshladim, shu payt ridoyimni yo'qotib qo'ydim. Silliq yog'ochli panjarani mahkam tutib turardim.

Hayqirib chaqirdim.

Ammo u,

Bu safar ham, menga javob bermadi" [1,40].

"Yusuf va rido" hikoyasida hikoya qahramonining tilida bir o'rinda Yusuf ismi tilga olinadi, va keyingi qismlarda keltirilmaydi. Yuqorida keltirilgan mana shu qismda hikoya qahramonining hiylaga uchragani, zax bosgan qamoqda yotishini Yusuf (a.s.) ning o'z akalari tomonidan quduqqa tashlab yuborishlariga muqoyasa qiladi. Ibrohim Aslon ham bu o'rinda "talmeh" san'atini qo'llagan. Hikoyada rido - ayriliq, hijron ramzidir. Rido ramzi zamirida Qur'oni karimning "Yusuf" surasida Yusuf (a.s.) ni quduqqa tashlashdan oldin akalarining uning

ko'ylagini Yechib olishlari va o'zini quduqqa tashlab yuborishlariga ishora qilingan. Hikoyada bosh qahramon Yusufni ham ridosini Yechib olib qamoqqa tashlashadi. Hikoyaning keyingi qismlarida bosh qahramonning izidan chiqqan hayoti to'g'risidagi hayollari aks ettiriladi. Ibrohim Aslon mazkur hikoyasida shu tariqa hayotdagi nohaqlik, yolg'on, fitna, hasad, g'alamislik kabi salbiy illatlarni aks ettirgan.

Hozirgi zamon o'zbek yozuvchilarining ijodida yuqorida ta'kidlanganidek, ishq mavzusi tarannum etilib, "Yusuf va Zulayho" motivi yaqqol aks etadi. Shu jumladan Ulug'bek Hamdamning "Yaxshiyam sen borsan!" hikoyasining bosh qahramonlari Yusuf va Zulayhodir. Hikoya to'laligicha ramziy, majoziy ma'noga ega. Mazkur hikoya "magik realizm" yo'nalishida yozilgan bo'lib, hikoya syujeti nazarimizda oddiy kundalik hayotimizdagi voqea – hodisalardan boshlanadi, lekin hikoyaning davomi sirlilik, ramziylik tus oladi. Hikoya qahramonlari, ikki sevishgan Yusuf va Zulayho bozorga kiradilar:

"Ular boshlashib bozorga kirishdi. Bozor naq dunyoning o'zginasi. Kirdingmi – ko'nglingni berasan! Kirdingmi – chiqqing kelmaydi! Kirdingmi sal bo'lmasa, bozorning o'ziga aylanasan! Hamma shu yerda: sotarmoni ham, olarmoni ham. Ur-sur, baqir-chaqir, o'ldim-kuydim...." [6,137]

Ulug'bek Hamdam hikoyada bozorga ta'rif berar ekan, inson jonidan ortiq hamma narsa borligini ta'kidlaydi. Yusuf va Zulayhoning bozorga ko'ngil chigallarini biroz yozish maqsadida kirib, chiqishga yo'l topa olmay qolishlari, natijada bozor ularni o'ziga maftun qilishi tasvirlanadi. Bozor – bu hayot timsoli. Inson hayotga keldimi, bozor, ya'ni hayot o'ziga maftun qiladi. Faqatgina o'zligini anglagan insongina bozorda o'z yo'nalishini yo'qotmasdan bozordan chiqishga intiladi. Hikoyada tasvirlanishicha, "chiqish" esa faqat qabristondir. Qabriston esa hayot o'tkinchiligi, o'lim haqiqat ekanligi timsolidir. Hikoyada birgina haqiqat insonni hayot mashaqqatlaridan, sinovlaridan

chin muhabbat, ya'nikim ilohiy muhabbat, Allohga bo'lgan muhabbati bor odam yengib o'tishi ifodalangan. Ulug'bek Hamdam mazkur hikoyada tasavvufiy g'oyalarni ilgari surgan, hikoya bosh qahramonlari Yusuf va Zulayhoni hayot sinovlaridan bir-birini qutqargan narsa bu bir-biriga bo'lgan muhabbatidir:

“- Yaxshiyam sen borsan, Zulayho! Yo'qsa, men bozorda yurgan, unda bir umr qolib ketgan, ketayotgan anavi million-million odamlarning biriga aylanardim... Qizning kiftidan quchib o'ziga qaratdi yigit.

– Yaxshiyam sen borsanki, men ham bozorda qolib ketmadim, Yusuf!

– Yaxshiyam sen borsan! – shivirlashdi ular bir-birlarining ko'zlariga termilib. Yusuf Zulayxoning qo'lidan mahkam tutdi va ular Yelkalari Yelkalariga tekkan ko'yi darvoza tomon asta, ammo ishonch bilan qadam tashlashdi...” [6,152].

Hikoyada sharq an'anaviy nasrnavisligida mavjud bo'lgan Yusuf va Zulayho o'rtasidagi muhabbat tarannumi kabi ikki sevishgan qalbning muhabbati tasvirlangan. Bu muhabbat esa ramziy ma'no kasb etadi. Hikoya qahramonlari Yusuf va Zulayho o'rtasidagi sevgi mehr-muhabbat, sadoqat bu insonning Alloh Taologa bo'lgan muhabbati timsolidir. Allohga muhabbati bo'lgan, Alloh ishqida yonib kuygan inson to'g'ri yo'ldan adashmaydi, nafs xohishlarini yengib o'tadi, oliy haqiqat sari intiladi, orifga aylanadi. Mumtoz adabiyotda “Yusuf va Zulayho” muhabbati majoziy ishqdan haqiqiy ishqqa yo'l ochishiga urg'u beriladi.

Yusuf va Zulayho o'rtasidagi ishq tarannumi yana bir o'zbek adibi Isojon Sulton ijodida o'zgacha namoyon bo'lgan. Isojon Sultonning “Yusuf va Zulayho” hikoyasida yosh yigit Yusufning Zulayho ismli juvonne sevib qolishi, yigit bo'lishiga qaramasdan unga uylanishi bayon etiladi:

“Yusuf juvonne telbalarcha sevarmish. Shifoxona yonida terakday qaqqayib, chiqishini kutarmish. Juvon goh gaplasharmish, goh

gaplashmay ketvorarmish. “Juvonne-ya? Hayratlanishardi choyxonadagilar. Juvon bo'lsa nima qipti? Tarixda Yusuf degan bir kishi yashagan, Zulayho degan bevaga uylangan. Yoki payg'ambarimiz-chi? Axir, olamda u bilmaydigan sir yo'q edi, Tangri taolo istasa uning uchun o'xshashi yo'q bir hurni paydo qilib qo'ya olardi, ammo Xadicha degan bir beva ayol taqdiriga ro'para qildi... Tangrining payg'ambariga-ki ravo ko'rilibdiki, Yusufni qanday malomat qila olasiz?” [9,369-370]

Hikoyaning mana shu parchasida yozuchi hikoya mazmun-mohiyati, hikoya yaratilish ildizlari qaysi matnga borishini ta'kidlab o'tgan. Isojon Sulton o'zining “Yusuf va Zulayho” hikoyasida bir tomondan qissanavislik, dostonchilik an'analari kuzatilsa, bir tomondan birinchi matnning ildizlari ko'zga tashlandi. Isojon Sultonning hikoyasi oshiq va ma'shuqlarning birga bo'lishi, lekin hikoya yakunida ayriliqqa uchrashi aks ettiriladi. Isojon Sultonning mazkur “Yusuf va Zulayho” hikoyasida Ulug'bek Hamdamning “Yaxshiyam sen borsan!” hikoyasida ham mazmunan, ham uslub jihatdan farqli o'laroq, xalq dostonchilik an'analari, sevishgan qalblarning hijron azoblari tasvirlangan:

“- Axir, seni sezmayapman – ku! – debdi Yusuf dardu dunyosi bir taraf, o'zi bir taraf bo'lib. – Ko'zimning oldida bo'lsang ham ... yo'qsan – ku!

- Qani mening Zulayhom? – debdi odamlarga gapirgisi kelmay, go'yo o'z – o'ziga aytganday qilib.

- Hoy Xudoyimning farishtalari, o'ngu so'limda, tepamda siz borsiz, ammo u yo'q-ku!

“Yo'q-ku!” - deb takrorlabdi u so'zni tevarakning aks-sadosi.

“Yo'q-ku!” deb qah-qah uribdi davvora shamoli yeru ko'kni enlab esib...” [9,374-375]

Mazkur parchada yozuvchi Yusuf obrazi timsolida yana “Majnun”ning siymosini ham singdirib yuborilganini ko'rish mumkin. Yusuf o'zini Zulayho tomonidan xiyonatga uchragandek his qilishi natijasida qattiq sevgan yori Zulayhoni

yoniga kechirim so‘rab kelsa ham uni his qilmay qolishi, uni anglamay qolish holati Majnuni Layliga bo‘lgan sevgining kuchidan Laylini ham tanimay qolishiga muqoyasalangandek go‘yo. Umuman olganda, mazkur hikoyada ikki sevishtan qalbning sevgi-muhabbati, ayniqsa, Yusufning muhabbati, lekin muhabbatdan g‘ururning ustunligi tasvirlangan.

XULOSA

“Yusufnoma” mavzusi o‘lmas adabiy ana‘analardan hisoblanadi. Har bir davrda ijodkorlar mazkur mavzuga o‘ziga xos, individual uslublarda qayta-qayta murojaaat qilaveradilar. Yozuvchilar bir tomondan, adabiy ana‘analarni davom ettirsalar, bir tomondan, yangi yangi uslublarni kashf qiladilar. Shu tariqa, adabiy ana‘analarbarhayotligiamalgaoshiriladi. Ta’kidlash joizki, zamonaviy arab va o‘zbek yozuvchilari hikoyalarida payg‘ambarlar hayotidagi voqealarni bugungi zamon qahramonining hayotiga singdirib tasvirlash orqali poklik, ezgulik, imon, e’tiqod, ma’naviy barkamollik kabi yuksak oliy tuyg‘ularni ulug‘lash va inson ma’naviyatini boyitish nuqtai nazardan yondashmoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. 7891. القاهرة. «يوسف و الرداء». ابراهيم اصلان.
2. زكريا تامر. النمر في اليوم العاشر. بيروت. 1891.
3. A‘zam M. Buyuklar muhabbati. – Toshkent: G‘.G‘ulom, 2012.
4. Muxiddinova D.Z. XX asr arab hikoyanavisligi. (Misr va mashriq arab mamlakatlari). – Toshkent: G‘.G‘ulom, 2017.
5. Qobilov U.U. O‘zbek adabiyotida nubuvvat motivi va obrazlar talqini. Filol. fan. nom.... dis. avtoref. – Toshkent, 2019.
6. Qur‘oni karim. O‘zbekcha izohli tarjima / Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur. – Toshkent: Cho‘lpon, 1992.
7. Hamdam U. To‘lin oy qissasi. To‘plam. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
8. Payg‘ambarlar tarixi (Islomiyat tarixi). – Toshkent: Toshkent Islom universiteti, 2002.
9. Rabg‘uziy N. B. Qisasi Rabg‘uziy. Birinchi kitob. – Toshkent: Yozuvchi, 1990. – 235 b. Ikkinchi kitob. 1991.
10. Sulton I. Genetik. To‘plam. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
11. Shayx Zohidxon Qodir Otaxon o‘g‘li. Payg‘ambarlar qissasi. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1993.